


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

***70910201 - "Akusherlik va ginekologiya" magistratura  
mutaxassisligining***

***MALAKA TALABLARI***



**Toshkent – 2024**

**ISHLAB CHIQLILGAN VA KIRITILGAN:**

Toshkent tibbiyot akademiyasi

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil “\_\_\_\_\_” - sonli buyrug‘i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

<b>T/r</b>		<b>bet</b>
<b>1.</b>	<b>Umumiy tavsifi.....</b>	<b>4</b>
1.1	Qo‘llanish sohasi .....	4
1.1.1	Malaka talabini qo‘llanilishi.....	4
1.1.2	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarning tavsifi .....	4
1.2.1	Kasbiy faoliyatning sohalari .....	4
1.2.2	Kasbiy faoliyatlarning ob‘ektlari .....	4
1.2.3	Kasbiy faoliyatlarning turlari .....	5
1.2.4	Kasbiy vazifalar.....	5
<b>2.</b>	<b>Kasbiy kompetentsiyalarga qo‘yiladigan talablar.....</b>	<b>7</b>
<b>3.</b>	<b>Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....</b>	<b>8</b>
	<b>Bibliografik ma‘lumotlar .....</b>	<b>9</b>
	<b>Kelishuv varag‘i.....</b>	<b>10</b>

## **1. Umumiy tavsifi**

70910201 – Akusherlik va ginekologiya magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi oliy ta‘limning dasturi amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me‘yoriy muddati 3 yil.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.**

Malaka talabi 70910201– Akusherlik va ginekologiya magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistr tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

magistratura mutaxassislikning o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim muassasasining talabalari;

bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya komissiyalari;

ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta‘lim muassasasini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

oliy ta‘lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

magistratura mutaxassisligini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo‘lgan bakalavrlar va boshqa manfaatdorlar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:**

Akusherlik va ginekologiya magistratura mutaxassisligi – Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim tizimi, malaka oshirish, qayta tayyorlash muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o‘qitish;

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, viloyatlar sog‘liqni saqlash boshqarmalari, ilmiy-tadqiqot markazlari, davlat boshqaruvi organlari, sog‘liqni saqlash tizimidagi davolash va profilaktika muassasalarini o‘z ichiga oladi.

#### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning ob‘ektlari:**

Malaka talabi 70910201 – Akusherlik va ginekologiya magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgan taqdirda, oliy ta‘lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta‘lim muassasalarida ta‘limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va

ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi;

Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta‘lim muassasalarida ilmiy tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

sog‘liqni saqlash tizimidagi jarayonlar, sog‘liqni saqlash tizimiga tegishli dasturlar, standartlar, ilmiy maqolalar, tezislar, ilmiy-tadqiqot ishlari, me‘yoriy hujjatlar, ma‘lumotnomalar, hisobotlar;

tibbiyot asbob-uskunalari, dori vositalari, muolajalar, resurslar, vositalar, usul va uslublar majmuasi;

jamiyat, aholi, oila, bemorlar, tibbiy yordamga muhtoj qariyalar, kattalar va bolalar, ayollar va erkaklar;

sog‘liqni saqlash tizimidagi davolash va profilaktika bo‘yicha davlat va xususiy muassasalar, viloyat, shahar, tuman davolash-profilaktika muassasalari rahbarlari va mas‘ul shaxslar;

ilmiy-tadqiqot va ilmiy-ishlab chiqarish muassasalari va tashkilotlari, tibbiy yordam xizmatlariga ega bo‘lgan xususiyligi istalgan shaklda bo‘lgan ishlab chiqarish birlashmalarida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar;

ilmiy tadqiqot jarayoni;

o‘quv jarayoni.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari:**

- *ilmiy-tadqiqot faoliyati;*
- *davolash va profilaktika faoliyati;*
- *tibbiy-ijtimoiy faoliyati;*
- *tashkiliy-boshqaruv faoliyati;*
- *oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta‘lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarida pedagogik faoliyat (o‘rnatilgan tartibda);*

- *konsalting xizmati faoliyatini o‘z ichiga oladi.*

Mutaxassislik bo‘yicha tayyorlangan magistrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta‘lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta‘lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

### **1.2.4. Kasbiy vazifalar:**

70910201- Akusherlik va ginekologiya mutaxassisligi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob‘ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

Respublika va xorijda chop etilgan akusherlik va ginekologiyaga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o‘rganish;

soha bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

mavzu (topshiriq) bo‘yicha ilmiy-amaliy ma‘lumotlarni yig‘ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma‘lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy-tadqiqotlarni o‘tkazish, yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish, olingan natijalarni tahlil qilish va amaliyotga tatbiq qilish;

amaliy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va kommunikatsion vositalaridan foydalanish;

zamonaviy texnologik jarayonlarni qo‘llash;

ilmiy asoslangan tizimlarni tavsiya etish va foydalanish;

echilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning kontseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish.

**Davolash va profilaktik faoliyatida:**

Homiladorlarda patologik holatlarni va ayollarda ginekologik kasalliklarini aniqlash va (kam invaziv usullarni qo‘shib) davolash;

tezkor yordam ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan to‘la hajmdagi ko‘nikmaga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassis-akusher-ginekolog sifatida mustaqil amaliy faoliyat ko‘rsatish;

aholi orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot qilish;

keng tarqalgan homiladorlar patologiyalarini va ginekologik kasalliklarni kamaytirish uchun profilaktik tadbirlarni amalga oshirish.

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

Sog‘liqni saqlash tizimida tibbiy jamoalarni boshqarishni ilmiy va amaliy asosda tashkil qila bilishi;

axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallagan bo‘lishi;

uzluksiz muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etish va o‘tkazilishiga ko‘maklashish (o‘quv personalini), tadqiqotlarda ishtirok etish, ma‘lumotlarni to‘plash, umumlashtirish va tahlil etish, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni egallash va tatbiq etish bo‘yicha guruhlarini boshqarish.

kasbga oid muammolarning yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

birlamchi ishlab chiqarish bo‘g‘inini tashkil qilish va uni boshqarish;

bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat

qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

**Tibbiy-ijtimoiy faoliyatida:**

Oila va alohida aholi guruhlari o‘rtasida inson salomatligiga ta‘sir qiluvchi ijtimoiy-gigienik, ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlashi va xavf omillarini bartaraf qilish.

**Axborot-tahliliy faoliyatida:**

Loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

**Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta‘lim muassasalarida ilmiy - pedagogik hamda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarida pedagogik faoliyatda (o‘rnatilgan tartibda):**

oliy va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi tizimining taʼlim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yoʻnalishida nazarda tutilgan oʻquv fanlari boʻyicha nazariy va amaliy mashgʻulotlarni oʻtkazish, jumladan oʻquv auditoriyalarida oʻtkazish;

oʻquv fanlarini oʻqitish uslubiyotini egallashi;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noanʼanaviy oʻquv mashgʻulotlarini oʻtkazish;

oʻqitilayotgan fanlar boʻyicha darslarni oʻtkazish uchun zarur boʻlgan oʻquv-uslubiy hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

oʻqitilayotgan fan boʻyicha mashgʻulotlarni oʻtkazish uchun oʻqitishning texnik vositalaridan foydalanish;

mustaqil taʼlim va ijodiy qidiruv natijasida oʻqitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi uslublar, vositalar va shakllar tizimida oʻz-oʻzini muntazam takomillashtirib borish;

elektron (e-learning) va mobil (m-learning) oʻqitish uchun oʻquv-uslubiy majmualarni ishlab chiqish;

uzluksiz taʼlim tizimining Davlat taʼlim standartlari, Davlat talablari va boshqa oʻquv-meʼyoriy hujjatlarni ishlab chiqish.

**Konsalting xizmati faoliyatida:**

mutaxassisliklar boʻyicha sogʻliqni saqlash tizimlari sohasida mavjud holatning analitik sharhini ishlab chiqish.

**Kasbiy kompetensiyalar:**

homilador ayollarda patologik holatlarni, somatik va ginekologik kasalliklarni zamonaviy usullardan foydalangan holda aniqlash va davolash;

homilador ayollarda patologik holatlarda va ginekologik kasalliklarda tez tibbiy yordam koʻrsatish uchun zarur boʻlgan toʻla hajmdagi koʻnikmaga ega boʻlgan yuqori malakali mutaxassis sifatida mustaqil amaliy faoliyat koʻrsatish qobiliyatiga ega boʻlishi

aholi orasida sogʻlom turmush tarzini targʻibot qilishi;

akusherlik patologiyalar va ginekologik kasalliklarni kamaytirish uchun profilaktik tadbirlarni amalga oshirish qobiliyatlariga ega boʻlishi lozim.

oila va alohida aholi guruhlari oʻrtasida inson salomatligiga taʼsir qiluvchi ijtimoiy-gigienik, ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlashi va xavf omillarini bartaraf qilish bilishi;

oliy va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi tizimining taʼlim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yoʻnalishida nazarda tutilgan oʻquv modullari boʻyicha nazariy va amaliy mashgʻulotlarini, jumladan oʻquv auditoriyalarida oʻtkazish;

oʻquv modullarini oʻqitish metodikasi koʻnikmalariga ega boʻlishi;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noanʼanaviy oʻquv mashgʻulotlarini oʻtkazishni bilishi;

oʻqitilayotgan modullar boʻyicha darslarni oʻtkazish uchun zarur boʻlgan oʻquv-metodik hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirishni amaliyotga tatbiq etishni bilishi;

o‘qitilayotgan modul bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun o‘qitishning texnik vositalaridan foydalanishni bilishi;

mustaqil ta‘lim va ijodiy qidiruv natijasida o‘qitilayotgan modul hamda pedagogik faoliyat sohasidagi usullar, vositalar va boshqa sohalarida o‘z-o‘zini muntazam takomillashtirib borishi;

uzluksiz ta‘lim tizimining Davlat ta‘lim standartlari, malaka talablari va boshqa o‘quv-me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqishni bilishi;

mutaxassislik bo‘yicha sog‘liqni saqlash tizimi sohasida mavjud holatlarning analitik sharhlarini ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

sog‘liqni saqlash tizimida tibbiy jamoalarni boshqarishni ilmiy va amaliy asosda tashkil qila bilishi;

hamkasblar, hamshiralar va kichik tibbiy xodimlar, bemorlar va ularning qarindoshlar bilan muloqotda tibbiy faoliyatning axloqiy va deontologik jihatlariga rioya qilish;

individual reabilitasiya marshrutini tuzishni bilish;

reabilitasiya jarayonida bemorning o‘zgaruvchan ehtiyojlarini baholash, prognoz qilish va monitoring qilish, reabilitasiya xizmatlarini etkazib beruvchilar va iste‘molchilar o‘rtasida samarali hamkorlikni tashkil etish, reabilitasiya infra tuzilmasi va undan reabilitasiya maqsadlarida foydalanish imkoniyatini bilish, reabilitasiya dasturlarining samaradorligi va sifatini nazorat qilish.

axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallagan bo‘lishi;

uzluksiz ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etish va o‘tkazilishiga ko‘maklashish (o‘quv personal), tadqiqotlarda ishtirok etish, ma‘lumotlarni to‘plash, umumlashtirish va tahlil etish, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni egallash va tadbiiq etish bo‘yicha guruhlarni boshqarish qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.

ilmiy-tadqiqotlarni o‘tkazish va yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish;

yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning kontseptual va nazariy modellarini ishlab chiqishni bilishi.

### **3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.**

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalami shakllantirishga qaratiladi.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

1. Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti
2. Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash

**Kvalifikatsiya:** Akusherlik va ginekologik ishni tashkil qilish va boshqarish mutaxassisi, pedagog-tadqiqotchi

## **Bibliografik ma’lumotlar**

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---



### **Tayanch so‘zlar:**

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta’lim yo‘nalishi, kasbiy faoliyat ob’ekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o‘quv reja va modul dasturi (magistratura dasturi), profil, o‘qib-o‘rganish natijalari, o‘quv sikli, ilmiy boshqarish, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, modul ishchi dasturlari, zamonaviy o‘lchov asboblari, ilmiy-tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

**Ishlab chiqaruvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari  
hamda kadrlar iste’molchilari**

**ISHLAB CHIQILGAN:**


**Toshkent tibbiyot akademiyasi,  
“Sog’liqni saqlash” ta’lim sohasi bo’yicha  
muvofiqlashtiruvchi soha Kengashi raisi,**

**Rektor v.y.b.**  **Sh.A.Boymuradov**  
2024-yil “ \_\_\_\_\_ ”  
 M.O’

**KELISHILGAN:**

**O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi**  
**Direktor**  **M.Boltabayev**  
2024-yil \_\_\_\_\_  
M.O’

**Toshkent pediatriya tibbiyot instituti,  
Tibbiyot oliy ta’lim muassasalari  
rektorlar rayosati raisi**  
**Rektor**  **B.T.Daminov**  
2024-yil \_\_\_\_\_  
M.O’

**O‘zbekiston Respublikasi  
Sog’liqni saqlash vazirligi  
Fan-ta’lim va innovatsiyalar  
boshqarmasi**  
**Boshliq**  **O‘.S.Ismailov**  
2024-yil “ \_\_\_\_\_ ”  
M.O’

**Toshkent shahar sog’liqni saqlash  
bosh boshqarmasi**  
**Boshliq**  **A.V.Alimov**  
2024-yil “ \_\_\_\_\_ ”  
M.O’